

HADICHA SULAYMONOVA-HUQUQIY ISLOHOTLAR YETAKCHISI**Xamitov Fatillo Xamitovich***Toshkent Davlat Yuridik Universitet**Qoshidagi M.Vosiqova nomidagi**Akademik litsey 2-bosqichi talabasi*

Anontatsiya: Toshkentning so‘lim ko‘chalaridan biriga Hadicha Sulaymonova nomi berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Sud-ekspertizasi markazi ham Hadicha Sulaymonova nomi bilan ataladi. Toshkent davlat Yuridik universitetida uning nomiga atalgan muzey bor. Haqli bir savol tug‘iladiki, nega bu ayol bunchalik izzat-u hurmatda ? Nega mehnatkash o‘zbek halqi bu ayolni bunchalik ko‘klarga ko‘tarib, qadrlaydi ? Bu maqolada shu va shunga o‘xshash savollarga tasnif berib o’tiladi.

Tayanch so’zlar: Hadicha Sulaymonova, Oliy sud raisi, Yuridik universitet, yurist, O’zSSSR Adliya vaziri, gender tenglingi, jinoyat

Annotation: One of the main streets of Tashkent is named after Khadicha Sulaimanova. The Forensic Expertise Center of the Republic of Uzbekistan is also named after Khadicha Sulaimanova. Tashkent State University of Law has a museum named after him. A legitimate question arises: why is this woman so respected? Why do the hardworking Uzbek people value this woman so much? In this article, these and similar questions are classified.

Key words: Hadicha Sulaimanova, President of the Supreme Court, University of Law, lawyer, Minister of Justice of the UzSSSR, gender equality, crime

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yurtdoshlarimiz sanoqli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ulardan biri esa taniqli olima, yuridik fanlari doktori, professor O‘zbekiston SSSR Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi Sulaymonova Hadicha Sulaymonovna bo‘ladi. U O‘zbekiston tarixidagi bиринчи huquqshunos qiz va sudya hisoblanadi. Hadicha Sulaymonova yoshligidan iqtidori, mehnatkashligi hamda adolatparvarligi bilan o‘z tengdoshlari orasida ajralib turgan.

1913-yilning 3-iyulida Sulaymon Kelginboyev oilasida bir qiz tug‘ildi. Ko‘p bolali o‘zbek oilasida bu qiz o‘sha davrda yurtda tug‘ilgan oddiy qizlar kabi qarshi olindi. Hali uning dunyolarga mashhur yurist bo‘lib yetishishi va jahon minbarlarida o‘z so‘ziga ega bo‘lishi hech kimning yeti uqlab tushiga ham kirmagandi. Xadichaning bolalik yillari jahon urushi davrlariga to‘g‘ri kelganligi sababli uning oilasiga hayot turli og‘ir sinovlarni “hadya qildi”. Otasi Sulaymon Kelginboyev o‘z davrining ziyoli va ko‘p tilni biladigan kishisi edi. Balki Hadichaning zukkoligining sababi ham shundandir. Sulaymon Kelginboyev Andijondagi karvonsaroylarning birida tarjimon bo‘lib ishlardi va o‘sha paytda rus mansabdorlari bilan ishlay oladigan yagona inson

edi. Lekin uning umri uzoqqa cho‘zilmadi. 1919-yilda Andijon shahriga bostirib kirgan bosqinchilar o‘qidan halok bo‘ldi. Hadichaning oilasi esa yo‘qchiliklar girdobida qoldi.

Hadichaning validasi Otincha ona o‘qimishli va irodali o‘zbek ayollaridan biri edi. Qiyinchiliklarga qaramay tun-u kun ishlab farzandlarining bilim olishi uchun sharoit topishga harakat qilar, pilla zavodida ishlab ham o‘qtuvchilar tayyorlash kursida o‘qidi. O‘qtuvchilar tayyorlash kursini tamomlab savodsizlikni tugatish kursida o‘qtuvchilik qilish bilan birga pilla zavodidagi ishini ham davom ettirdi. Otincha bir o‘zbek onasining farzandlari kelajagi uchun qilishi mumkin bo‘lgan barcha ishlarni qildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bu mehnatlarining barchasi farzandlarining ilm olishi uchun edi va u topgan puliga 5 ta farzandlarining barini rus maktabida o‘qishini ta’mnladi. Hadichaning huquqshunoslik sohasiga qiziqishi uyg‘onishi ham o‘zgacha bo‘ldi. Nurxon ismli qiz Marg‘ilonda o‘z akasi tomonidan pichoqlab o‘ldirildi. Uning aybi esa ilmli va savodli bo‘lishga harakat qilganligi hamda erkinlikka erishmoqchi ekanligi edi. Hadicha aynan mana shu holat yuzasidan Marg‘ilondagi ochiq sudda qatnashdi. Bu ham bir taqdirning inoyatiki Andijonda istiqomat qiladigan qiz xolasining uyiga mehmonga Marg‘ilonga kelganida ushbu voqeanning ustidan chiqib qolishi tasodif edi. Ochiq sud majlisida Tojixon ismli ayol jamoat ayblovchisi bo‘lib ishtirok etdi. Tojixonning ayollar huquqini himoya qilishga qaratilgan zabardast nutqi hamda stolda zalvor ila o‘tirgan sudyalarning kiygan mantiyasi Hadichaning qalbida huquqshunos bo‘lish istagini vujudga keltirdi. 1931-yilda Hadicha Sulaymonova huquqshunos bo‘lish istagi ila ilm-u urfon o‘chog‘i bo‘lmish Toshkentga yo‘l oldi. Aynan o‘sha yili Toshkentda Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq-ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilgandi va Hadicha ushbu institutning huquq yo‘nalishiga qabul qilingan ilk o‘zbek qizi edi. Keyingi yili ushbu huquqshunoslik tayyorlov bosqichini bitirgan Hadicha huquq fakultetiga 2 kursdan qabul qilindi. Uning nozik yelkasida o‘zbek xotin-qizlari ichida birinchi oliy ma’lumotli huquqshunos bo‘lishni ma’suliyatli yuki bilan birga faxr ham bor edi. Shu sababli ham Hadicha institutning yetakchi talabaridan biri bo‘ldi, jamoat ishlarida faol ishtirok etdi hamda institutni a’lo baholarga bitirib o‘sha paytda davlat rahbari darajasidagi lavozimda o‘tirgan Yo‘ldosh Oxunboboyevning shaxsan o‘zidan diplomni olishga tuyassar bo‘ldi. Hadicha Sulaymonova bu bilan to‘xtab qolmadı. Uning ibratli hayot yo‘li hali endigina boshlangan edi. 30- yillarning boshida u xalq sudyaligiga tayinlandi. Xalq sudyaligidagi salmoqli xizmatlari evaziga 1935- yilda Oliy sud sudyaligiga saylandi. Hadicha o‘sha yili bor yo‘g‘i 22 yoshda edi !!! Uning sudyalik davri qatag‘on yillariga to‘g‘ri kelib qoldi. Shu sababdan ham Hadicha aybi yo‘q insonlarni nohaq surgun qilish yoki otuv hukmini o‘qishdan “qochishning” ajoyib yo‘lini topdi. 1938-yilda Moskva Yuridik institutining Jinoyat huquqi kafedrasи aspiranturasiga o‘qishga kirdi. Ham ilm bilan shug‘ullandi ham nohaq jazo berib ona xalqi oldida yuzi shuvut bo‘lishini oldini oldi. Hadicha ushbu dargohda a’lo baholarga

o‘qishi bilan tezda professor o‘qtuvchilar e’tiboriga tushdi va hattoki Yuridik fanlar doktori A.Traynining tahsiniga sazovor bo‘ldi.

Aspiranturada o‘qishi davrida ilmiy ishini oxriga yetkaza olmaydi. Buning sababi esa minglab oilalar yostig‘ini quritgan Ikkinchiji Jahon urushi edi. Birinchi jahon urushidan aziyat chekkan olimaga ikkinchi jahon urushi ham o‘z tasirini o‘tkazmay qolmadi. Lekin har bir ishdan ezgulikni izlagan olima bu jarayonda ham o‘z yo‘lini topdi. Rahbariyatdan Toshkentda ochilgan Yuridik institutga ishga jo‘natishlarini iltimos qildi va 1941-1945- yillarda o‘z faoliyatini pedagog sifatida davom ettirib yillar davomida o‘rgangan tajriba va ilmlarini o‘zbek talabalariga sidqidildan o‘rgatdi. Shu bilan birga ilmiy dissertatsiyasini ham to‘xtatmadidi. 1945 – yilda dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilish orqali huquqshunoslik fanlari nomzodi darajasini oldi. Huquqshunoslik sohasida ilmiy darajaga ega bo‘lgan birinchi o‘zbek ayoli sifatida tarixga kirgan Xadicha o‘zbek xotin-qizlari uchun namunaga aylandi va maqsadlari yo‘lida har qanday qiyinchiliklardan qo‘rmaslikka da’vat qildi.

Hadicha Sulaymonova endi yetishib chiqayotgan yosh yurist kadrlarning ilm olishi uchun qo‘lidan kelgan barcha ishlarni amalga oshirishga ahd qildi. Uning tashabbusi bilan Falsafa va huquq ilmiy-tadqiqot markazi ochildi. U o‘zidan ilmiy meros qoldirishga harakat qildi va aynan mana shu ilmiy-tadqiqot markazida o‘tirib O‘zSSR Jinoyat kodeksiga sharh yozdi. Bu sharhda jinoyat qonunchiligiga mukammal tavsif berilgan bo‘lib, amaliyotda qo‘llashning harakterlari batafsil yoritib berildi. Uning ilm-fan yo‘lidagi jonbozligi hisobga olinib 1954-yilda Toshkent Yuridik institutiga direktor etib tayinlandi hamda “O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi. Uning rektorligi davrida yurist olimlar ilmiy meroslarni rivojlantirish bilan shug‘ullanishdi. Aynan Hadichaning rahbarligi ostida 4 jilddan ortiq ilmiy asarlar yozildi.

Hadicha Sulaymonova bu bilan to‘xtab qolmadi. Qatag‘on yillarda nohaq qoralangan o‘zbek xalqining ziyoli insolarini nomini poklash yo‘lida ham jonbozlik ko‘rsatdi. U 40 mingga yaqin nohaq qoralangan o‘zbeklar nomini oqlashda o‘z hissasini qo‘shdi. Oqlanganlar orasida Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromovlar ham bor edi. Bu Hadichaning xalqimiz oldidagi eng buyuk xizmatlaridan biri hisoblanadi. Shu davr mobaynida uning o‘z ishining ustasi ekanligi sababli Ministrlar Sovetining rahbarlari e’tiboriga tushdi hamda 1956-yilda Adliya vaziri etib tayinlandi. Ushbu lavozimda ham tinib-tinchimas o‘zbek qizi ko‘pgina ishlar qildi. U birinci marta kolegiallik tushunchasini sohaga kiritdi ya’ni byurokrat rahbar sifatida buyruqbozlik bilan emas balki har bir masalani kollegial tarzda hal qilishga harakat qildi. U Adliya vaziri sifatida o‘zbek mahallalarida yuridik targ‘ibotni kuchaytirdi. Bu ishi orqali o‘zbek xalqining o‘z huquqlarini anglab olishi yo‘lida katta jonbozlik ko‘rsatdi. Uning bu harakatlari samarasini bermasdan qolmasdi, albatta. 1956-yilda Xadicha Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi etib saylandi. Endi u oddiygina Hadicha emas balki,

Yuridik fanlar doktori Akademik Hadicha Sulaymonova edi. Uning rahbarligi ostida 16 dan ortiq yoshlar doktorlik dissertatsiyalarini yoqlashdi. Bu uning ilm-fan yo‘lidagi fidoiyligining isboti hisoblanadi. Hadicha Sulaymonova qonunchilikka o‘z hissasini qo‘shishda davom etdi. O‘zSSR fuqarolik va fuqarolik protsessual kodekslarining ishlab chiqishida bosh-qosh bo‘ldi hamda huquq sohasiga jahon tajribasining ijobiy jihatlarini olib kirdi. 1964-yilda Hadicha Sulaymonova O‘zbekiston Oliy sudi raisi lavozimiga saylandi. Hadicha Sulaymonova Respublika Oliy sudini boshqargan birinchi ayol sudya edi. Ha adashmadingiz. Dunyoning hech bir nuqtasida hattoki demokratiya, gender tengligi deb bong urayotgan davlatlarning birortasida ayol sudya Respublikaning Oliy sudini boshqarmagan edi. Sulaymonova sud-huquq tizimini isloh qilish uchun tun- u kun mehnat qildi. Shogirdlari bu davrni eslab uning raisligi davrida O‘zbek sud tizimi yangi bosqichga ko‘tarilgan davr edi deb aytishadi. Hadicha ish bilan birga oilasini ham unutib qo‘ymaydi. Uning turmush o‘rtog‘i “Hadicha taqdirning menga bergen eng katta “sovg‘asi” edi. Men undan minnatdorman” deb bejizga aytmagan edi. Zero, atoqli shoira Zulfiya aytganidek “ayol bir qo‘li bilan beshikni tebratsa bir qo‘li bilan dunyoni tebrata oladi. Aynan shu naqlning jonli isboti bo‘lgan Hadichaning hayoti abadiyat quchog‘idagi so‘nmas umrdir”.

Yuridik sohaga yaqin insonlar uchun Hadicha Sulaymonova juda ham katta nom hisoblanadi. Hech bir yurist yo‘qki Adliya vaziri bo‘lishni xohlamasa, hech bir yurist yo‘qki Oliy sud raisi bo‘lishni xohlamasa. Oddiy oiladan chiqqan Hadicha Sulaymonova har bir yurist o‘tirishni xohlaydigan “kursilar”ning barchasida o‘tirgan. Lekin hech bir zamon yo‘qki u ona xalqining tashvishi bilan yashamagan bo‘lsa...

Hadicha Sulaymonova 1965-yilning 26-noyabrida og‘ir va uzoq kassalik oqibatida olamdan erta vafot etadi. U qisqa umr ko‘rishiga qaramasdan juda ko‘plab savob ishlarni amalga oshirishga hamda o‘z xalqining hurmatiga sazovor bo‘lishga ulgurdi. Jumladan, u hozirgi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yaratilishiga, mintaqadaadolatli huquqiy muhit vujudga kelishiga, huquqshunoslik fanining rivojlanishiga va jamiyat farovonligini ta’minlashga g‘oyat katta hissa qo‘shib ketdi. Xalqimiz xotirasida esa birinchi huquqshunos olma, davlat arbobi va buyuk murabbiy sifatida muxrlanib qoldi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.yosolarovozi.uz/oz/news/abadiyat-quchogidagi-sonmas-umr>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xadicha_Sulaymonova
3. Toshkent. Ensiklopediya. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 675 b.